KUNDALIK SUHBATLARDA RAD JAVOBINI YUMSHATISH USULLARI

Kurbanova Sevara
Abdumannonova Yoqutoy

Annotatsiya

Ushbu maqolada kundalik muloqotda rad javobini muloyimlik bilan va suhbatdoshga salbiy ta'sir o'tkazmaydigan tarzda ifodalash usullari haqida so'z boradi. Xususan, maqolada nafaqat to'g'ridan-to'g'ri rad javobini berish, balki sabab keltirish yoki muqobil variantlarni taklif etish orqali suhbatdoshga og'ir botmaydigan tarzda inkor etish usullari o'rganiladi. Bundan tashqari, Brown va Levinsonning ushbu mavzu doirasidagi fikrlari, "yuz" nazariyasi va Lakoffning xushmuomalalik tamoyillari haqidagi qarashlari alohida e'tirof etiladi. Chet tillardagi muloqot etiketi va o'zbek tilidagi tushunchalar qiyosiy tarzda yoritib beriladi.

Kirish

Har bir tilda hurmat, ehtirom va xushmuomalalikni ifodalashning turli strategiyalari mavjud. Ular orasida noaniqlik semantikasi alohida o'rin tutadi. Ya'ni so'zlovchi fikrini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki noaniq yoki boshqa bir tushunchaga nisbatan ifodalash orqali suhbatdosh oldida gapini yumshatadi. Shu tariqa suhbatning bahs-munozarali yoki qo'pol tus olishining oldi olinadi [Cianci, 2017: 27].

Insonlar bir-biri bilan suhbatlashadi, axborot almashadi va o'z bilimlarini baham ko'radi. "Har to'kisda bir ayb" deganlaridek, har bir suhbat doimo ham ijobiy yakun topavermaydi. Shunday vaziyatlar bo'ladiki, inson o'zi xohlamasa ham rad javobini berishga majbur bo'ladi. Bunga ba'zan vaziyat, ba'zan esa vaqt yetishmovchiligi sabab bo'ladi. Shunga qaramay, rad javobini olgan insonlar bu javobni noto'g'ri qabul qilishlari yoki undan ranjishlari mumkin. Ushbu maqolada insonlar o'rtasidagi xushmuomalalik madaniyati va suhbatdoshni ranjitmasdan rad javobini berish usullari yoritiladi.

Xushmuomalalikni o'rganishda pragmatika sohasi, ya'ni nutqiy harakatlar nazariyasi hamda "yuz" tushunchasiga doir nazariyalar muhim o'rin egallaydi. Brown va Levinson ta'kidlaganidek, har bir inson muloqot davomida o'z "yuzi"ni saqlashga harakat qiladi va muloqotdoshining ham yuziga putur yetkazmaslikka intiladi. Shu sababli so'zlovchi suhbatdoshining yuziga tahdid qiluvchi xatti-harakatlar o'rniga, fikrini chalg'itmaydigan, qo'pol bo'lmagan va biroz yumshatilgan shaklda ifodalash usullaridan foydalanadi.

Brown va Levinson o'z nazariyalarida xushmuomalalik strategiyalarini to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita turlarga ajratadi. Bilvosita fikrni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki boshqa bir tushuncha, ritorik savollar, mubolag'a va boshqa vositalar orqali ifodalashni anglatadi. Bunda so'zlovchi fikrini ochiq aytmasdan, suhbatdoshning uni o'zi tushunib olishiga imkon beradi (Brown va Levinson, 1987: 48).

R. Lakoff xushmuomalalikni uchta qoidaga ajratadi: 1) rasmiylik — masofani saqlash; 2) hurmat — tanlash imkoniyatini berish; 3) samimiylik — do'stona munosabatni ko'rsatish. Birinchi tamoyilga ko'ra, so'zlovchi masofani saqlash orqali ehtiromni ifodalaydi. Ikkinchi tamoyil esa suhbatdoshga tanlash imkoniyatini yaratadi va unga bosim o'tkazmasdan, muloyim munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Biroq turli madaniyatlarda ushbu tamoyillarning ahamiyati farq qilishi mumkin.

Yapon tili dunyodagi xushmuomalalik vositalari keng qo'llanadigan tillardan biri sifatida tanilgan. Unda hurmatni ifodalovchi til birliklaridan tortib, kundalik suhbatlarda xushmuomalalikni saqlovchi iboralargacha mavjud. Yapon muloqot madaniyatida rad javobini bevosita va keskin tarzda aytmaslikka e'tibor beriladi. Masalan, "Yo'q, buni qilmayman" deyish o'rniga "Afsuski, hozir buning imkoni yo'q"

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yoki "Boshqa safar, ehtimol" kabi ifodalardan foydalanish mumkin. Bunday iboralar suhbatdoshning ko'ngliga tegmaslikka va muloqotni samimiy davom ettirishga yordam beradi.

Rad javobini yumshatishning yana bir usuli — sabab keltirishdir. So'zlovchi nima uchun taklifni qabul qila olmasligini qisqacha tushuntirsa, suhbatdosh javobni yaxshiroq anglaydi. Shuningdek, muqobil taklif berish ham foydali. Masalan: "Bugun bora olmayman, yaxshisi, ertaga birga boramizmi?" Bunday javob rad etishni yumshatadi va suhbatning ijobiy davom etishiga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kundalik suhbatlarda rad javobini yumshatish uchun to'g'ri so'zlardan foydalanish, sababini tushuntirish, minnatdorchilik bildirish va o'rniga muqobil variantlarni taklif qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu usullardan foydalanish suhbatdoshlar orasida o'zaro hurmat tuyg'usini mustahkamlaydi va tushunmovchiliklar yuzaga kelishining oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Cianci, M. A Pragmatic Research of Japanese Ambiguity and Politeness in Invitation. 2017.

Brown, P. & Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.

Lakoff, R. Language and Woman's Place. New York: Harper & Row, 1975. 296 p.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.